



**IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGIDA
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLAB CHIQUARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK
MASALALARI**

Quyliyev Ulug'bek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0004-4877-4328

kuyliev11@rambler.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida soliq ma'muriyatchiligida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarishning nazariy-metodologik masalalari, shu bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning fikrlari o'rganilgan. Shuningdek mavzuga doir olib borilgan tadqiqotlar natijasi bo'yicha O'zbekiston soliq tizimida iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida soliq ma'muriyatchiligida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashni takomillashtirishga oid xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliqlar, soliq nazariyasi, soliq tizimi, iqtisodiyotni raqamlashtirish, qo'shilgan qiymat solig'i, "Tax gap", axborot tizimi, axborot texnologiyalari.

**ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ РАСЧЁТА НАЛОГА НА ДОБАВЛЕННУЮ
СТОИМОСТЬ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ В НАЛОГОВОМ
АДМИНИСТРИРОВАНИИ**

Куйлиев Улугбек

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Данной статье рассматриваются теоретические и методические вопросы исчисления налога на добавленную стоимость при налоговом администрировании в условиях цифровизации экономики, а также мнения отечественных и зарубежных учёных по данному вопросу. Также по результатам исследования по теме разработаны выводы и предложения по совершенствованию исчисления налога на добавленную стоимость при налоговом администрировании в условиях цифровизации экономики в налоговой системе Узбекистана.

Ключевые слова: налоги, теория налогообложения, налоговая система, цифровизация экономики, налог на добавленную стоимость, «налоговый разрыв», информационная система, информационные технологии.

**THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ISSUES OF CALCULATING VALUE-ADDED TAX IN
TAX ADMINISTRATION UNDER THE CONDITIONS OF ECONOMY DIGITALIZATION**

Ulugbek Quyliyev

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article examines the theoretical and methodological issues of calculating value added tax in tax administration in the context of digitalization of the economy, as well as the opinions of local and foreign scientists on this issue. Also, based on the results of research on the topic, conclusions and proposals have been developed on improving the calculation of value added tax in tax administration in the context of digitalization of the economy in the tax system of Uzbekistan.

Keywords: taxes, tax theory, tax system, digitalization of the economy, value-added tax, "Tax gap", information system, information technology.

Kirish.

Raqamlashtirish - qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) ma'murchiligini takomillashtirish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamlashtirish sharoitida QQS hisobotini elektron texnologiyalar yordamida tuzish va elektron hisobvara-fakturalar, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida elektron hujjat aylanishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Elektron hisobvara-fakturalarni rasmiylashtirishda yetkazib beruvchida tovarlarning mavjudligini avtomatik ravishda aniqlash elektron xizmatini Yagona milliy elektron katalog identifikatsion kodlari asosida joriy etishni ta'minlaydi. Mamlakatimizda QQSni hisoblashda hisob faktura asosida hisoblash usulidan keng foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi "Qo'shilgan qiymat solig'i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog'liq soliq ma'murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 489-son qarori bilan tasdiqlangan "Hisobvara-fakturalarning shakllari hamda ularni to'ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomda hisobvara-faktura - O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq uni taqdim etish majburiyatiga ega bo'lgan tovarlarni (xizmatlarni) sotuvchi (yetkazib beruvchi) tomonidan rasmiylashtiriladigan qat'iy belgilangan namunadagi (formatdagi), tovarlar haqiqatda jo'natilganligini yoki xizmatlar ko'rsatilganligini va ularning qiymatini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari sonining ko'payishi soliq ma'muriyatchiligi uchun soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilish imkoniyatini pasaytirib, soliq to'lovchilar tomonidan turli soliqdan qochish sxemalaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bunday imkoniyatlardan biri xufyona iqtisodiyot sharoitida bir kunlik korxonalarni tashkil etish, ular tomonidan soxta hisobvara-fakturalar yaratish orqali byudjetga tushishi lozim bo'lgan QQS summasini kamaytirish hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqaruvchilarga emas balki iste'molga soliq sifatida dastlab, 1954-yil Fransiyada iqtisodchi M.Lore tomonidan taklif etildi va ko'p mamlakatlarga tarqaldi. QQS O'zbekistonda 1992-yildan soliq tizimining byudjet daromadlarini ta'minlovchi eng muhim qismiga aylandi. Uning soliq tizimida muvaffaqiyatli amal qilishida O'zbekistonlik amaliyotchi mutaxassislar Gataulin, Gadoyev va Zavalishinalarning (2011) bu soliqni undirish mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq qator ilmiy tadqiqotlari mavjud.

Qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlari, hisoblash va undirish mexanizmlari Toshmatov, Komilov (2004), Yahyoyevlar tomonidan ham atroflicha o'rganilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, respublikamizda o'ziga xos shakllangan iqtisodiy holatni, ya'ni milliy daromad, ishlab chiqarish, yirik korxonalar soni va aktivi davlat korxonalariga tegishli bo'lgan sharoitda, mulkchilikning boshqa shakllari yaxshi rivojlanmagan sharoitda bu soliqning va yirik davlat korxonalariga nisbatan qo'llanishi uning fiskallik ahamiyati ijtimoiy sohalarga kamroq ta'sir etgan holda joriy etish imkonini berdi.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan Zou, Shen va Gonglar (2019) Xitoyda 2007-yilda QQS bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarning korxonalar investitsiya faoliyatiga, zamonaviy texnologiyalar jalb qilish orqali iqtisodiy samaradorlik o'sishiga, shuningdek "daromad samaradorligi", "bozor samaradorligi" va "majburiyatlarni qoplash samaradorligi"ga ta'sirini tadqiq qilgan.

Alizadeh va Motallabilar (2016) esa qo'shilgan qiymat solig'i va davlat xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilib, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash uchun davlat xarajatlarini qisqartirish, natijada esa QQS stavkasini ham pasaytirishni ilgari suradi.

Iqtisodchi Zavalishina (2005) o'zining "Soliqlar: nazariya va amaliyot" nomli qo'llanmasida QQS mahsulotning sotuv narxiga qo'shilmay uning ustiga qo'yilib, xaridor tomonidan to'lab berilishi, bu esa o'z vaqtida ishlab chiqarishning xarajatlari va rentabelligiga ta'sir etmasligi masalalarini tadqiq qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi bo'lib, soliq tizimida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishning nazariy-huquqiy asoslari metodologiyasini iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi. Soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining 2023-yil 1-yanvardan 12 foizgacha pasaytirilishiga qaramasdan tushumlar 34,0 trillion so'mni tashkil etib, 1.2 trillion so'mga oshgan hamda soliq to'lovchilar soni 11.2 foizga oshib 198,2 mingtani tashkil etgan. Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan, dunyoda byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisoblashning to'rtta usuli mavjud bo'lib, ulardan hisob-fakturaga asoslangan hisoblash usuli QQSni hisoblashning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Hisob-fakturaga asoslangan hisoblash usuli bo'yicha firma ishlab chiqarish va realizatsiya zanjirining istalgan bosqichida ishlab chiqarilgan mahsulotini sotishda o'z mijozlaridan QQSni undiradi, soliq summasini iste'molchidan undirilgan QQSdan xom ashyo materiallari uchun allaqachon mol yetkazib beruvchilarga to'langan kiruvchi QQS summasini ayirish yo'li bilan aniqlaydi.

Soliq tizimida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish ma'muriyatchiligi va metodologiyasining nazariy-huquqiy asoslari umumlashtirildi. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash va guruhlash kabi usullardan foydalanilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining 2023-yil 1-yanvardan 12 foizgacha pasaytirilishiga qaramasdan tushumlar 34,0 trillion so'mni tashkil etib, 1.2 trillion so'mga oshgan hamda soliq to'lovchilar soni 11.2 foizga oshib 198,2 mingtani tashkil etgan.

Shuningdek, Soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil rasmiylashtirilgan hisob-varaq fakturalar soni 2022-yilga nisbatan 10,2 foizga ko'payib 41,5 milliontani tashkil etgan. Ulardan aks ettirilgan tovaraylanma miqdori 1530,1 trillion so'm bo'lib, 2022-yilga nisbatan 26,1 foizga oshgan. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha 2024-yilda tushumlar 39,6 trln.so'mni tashkil etdi va 2023-yilga nisbatan 5,6 trln.so'mga yoki 16,4 foizga oshgan. QQS bo'yicha manfiy farqni qoplash uchun kelib tushgan 10 718 ta murojaatlarga asosan 22,8 trln. so'm (2023-yilda 12 620 ta 19,7 trln.so'm yoki 19,1 foizga o'sish) qaytarilgan. QQS to'lovchilar soni 2023-yilga nisbatan 5,7 foizga ga oshib, 201,0 mingtaga yetgan.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida rasmiylashtirilgan elektron hisobvaraq-fakturalar tovar aylanmasi 2 041,6 trln. so'm yoki 2023-yilga nisbatan 367,1 trln. so'mga (22 foizga) ortgan bo'lsa, QQS summasi 169,5 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 32,0 trln. so'mga (24 foizga) oshgan. Ularda aks ettirilgan tovar aylanmasi 1 041,6 trln.so'm bo'lib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 367,1 trln.so'mga (22,0 foizga) ortgan bo'lsa, QQS summasi 169,5 trln.so'mni tashkil qilib, 32,0 trln.so'mga (23foiz) oshgan.

Mazkur natijalarga hisob-varaq fakturalarning elektron shaklda rasmiylashtirilshi orqali erishilgan.

Jahon amaliyotini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli moliyaviy aktivlar, raqamli valyutalar borasida ba'zi mamlakatlar qonun darajasida me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilgan. Xususan, elektron hisob fakturani amaliyotda qo'llash xorijiy mamlakatlarda quyidagicha yo'lga qo'yilgan. Xitoy Xalq Respublikasida soliqdan qochishning oldini olish va qonunchilikka rioya qilish darajasini oshirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyaga asoslanilgan "Oltin soliq loihasi"(Golden Tax Project (GTP)) deb nomlangan moliyaviy islohot amaliyotga joriy qilingan. Bu moliyaviy islohot bevosita QQSga ham tegishlidir. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish va elektron hujjatlar aylanishini tezlashtirish maqsadida elektron arxivlashtirishni rivojlantirmoqda. Hindistonda 2015-yil martdan boshlab qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar asosida barcha schyot-fakturalar elektron shaklda berilishi shart. Indoneziyada eca barcha soliqqa tortiladigan tadbirkorlar

2016-yil 1-iyuldan boshlab schet fakturalar (Faktur Pajak, FP) va soliq to'lovlari elektron shaklda internet orqali amalga oshirishi majbur qilib belgilangan.

Qozog'iston Recpublikacida elektron schyot-faktura tuzishga 2016-yil 1-yanvardan o'tilgan. Qozog'iston Recpublikasi Soliq Kodeksining 412-moddasiga asosan 2019-yil 1-yanvardan boshlab elektron schyot-faktura tuzishga to'liq o'tish belgilangan. Ushbu moddaga asosan tadbirkor QQS to'lovchisi bo'ladimi yoki yo'qmi schyot-fakturani elektron shaklda tuzishga majburdir (Kodeks, 2017).

Rossiya Federatsiyasida elektron schyot-fakturaga o'tishda 2010-yil 27-iyuldagi 229-FZ-sonli Federal Qonun bilan RFning Soliq Kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish asos bo'ldi. Ushbu qonunga asosan RFning Soliq Kodeksida soliq munosabatlarida foydalanadigan elektron hujjatlar ro'yxati kengaytirildi va bu ro'yxatga elektron schyot-faktura ham kiritildi. Elektron schyot-fakturadan foydalanish RFning Soliq Kodeksining 169-moddasi 1-bandida mustahkamlab qo'yildi. Hozirgi vaqtda Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilish maqsadida 20 dan ortiq axborot komplekslaridan foydalanadi.

Yevropa Komissiyasi Yevropa Ittifoqining biznes uchun qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) tizimini modernizatsiya qilish va takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish va rag'batlantirish orqali firibgarlikka chidamliroq qilish bo'yicha qator chora-tadbirlarni taklif qildi. Bu takliflardan asosiysi yangi elektron hisob fakturaga o'tishdir. Yangi elektron hisob-faktura tizimiga o'tish Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarga kelgusi o'n yil ichida hozirda QQS firibgarligi tufayli yo'qolgan pullarning yiliga 11 milliard yevrogacha daromadni qoplashga yordam beradi (Veronika, 2023).

Mamlakatimizda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentyabrdagi "Soliq to'lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo'shilgan qiymat solig'ining o'rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 595-son qarori bilan "Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarini soliq organlarida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha maxsus ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom" tasdiqlandi. Ushbu Nizomda qo'shilgan qiymat solig'i jarayonini raqamlashtirish va avtomatlashtirish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab berildi.

Maxsus ro'yxatga olish bo'yicha ariza bergan QQS soliq to'lovchilarning xavfini avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish bo'yicha maxsus axborot platformasini ishlab chiqish va joriy etish. Bunda soliq organlari tomonidan belgilangan muddatda arizalarga javob taqdim etilmagan taqdirda ro'yxatga olish guvohnomasini avtomatik berish tizimini nazarda tutish.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini takomillashtirish yo'llaridan biri raqamli soliq tizimiga o'tishdir.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo 130 mamlakatlar 2023-yildan boshlab raqamli soliq tizimiga o'tishni boshlashdi. Raqamli soliq - bu transmilliy IT-korporatsiyalar hisobidan davlat tomonidan olinadigan daromadlardan soliq tushumlarini optimallashtirishga qaratilgan hukumat chora-tadbirlari majmuidir (Ugarov va Lomov, 2022).

Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini takomillashtirishning yana bir yo'nalishi bu - raqamli moliyaviy aktivlarni soliqqa tortish amaliyotidir.

Mamlakatimizda kripto-aktivlar aylanmasi soliqlardan ozod etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-121-son farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3832-son qarorlariga asosan, yuridik va jismoniy shaxslarning kripto-aktivlar aylanmasi bilan bog'liq operatsiyalari, jumladan, norezidentlar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar soliq solinadigan obyekt hisoblanmasligi, mazkur operatsiyalar yuzasidan olingan daromadlar esa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq solinadigan bazaga kiritilmasligi.

Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun belgilangan tartibda litsenziya olgan shaxslar tomonidan o'tkaziladigan kripto-aktivlar aylanmasi bilan bog'lik valyuta operatsiyalariga valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari normalari tatbiq etilmaasligi belgilangan.

Mamlakatimizda qo'shilgan qiymat solig'ining stavkasi yildan yilga pasayib bormoqda, bu esa tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashdan dalolatdir (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining 2018-2025 yillardagi o'zgarish dinamikasi

№	Ko'rsatkichlar	Yillar							
		2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
1	Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi, foizda	20	20/15	15	15	15	12	12	12

Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan 2019-yilning 1-oktyabrdan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O'RQ-812-son Qonuniga asosan 2023-yil 1-yanvardan QQS stavkasi 12 foiz etib belgilangan.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining 2023-yil 1-yanvardan 12 foizgacha pasaytirilishi qiymat zanjiri uzluksiz shakllangan taqdirda korxonalarda faollikni yanada oshiruvchi va shu bilan birgalikda iste'mol narxlarini oshirishini sekinlashtiruvchi omil sifatida qaratildi.

Mamlakatimizda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining pasayishi, soliq ma'murchiligini soddalashtirishilishiga qaramasdan lekin uning byudjet daromadlari va bilvosita soliqlar takibidagi hali ham sezilarli darajada qolmoqda.

2024-yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq ma'murchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar mazkur soliqning mamlakat soliq siyosatidagi ahamiyatini oshirdi. Jumladan, Soliq kodeksining 237-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, "chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq tadbirkir sifatida ruyxatdan o'tgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar, agar bunday tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi deb O'zbekiston Respublikasi e'tirof etilsa qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi" deb e'tirof etilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining ma'lumotlariga asosan 2024-yilda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar summasi 61,4 trln.so'm bo'lib, jami soliq imtiyozlarining asosiy qismini (84,5 foiz) tashkil etgan.

QQS bo'yicha foydalanilgan asosiy imtiyozlar yo'nalishlari:

- eksport va unga tenglashtirilgan xizmatlar – 32,5 trln.so'm;
- moliyaviy va sug'urta xizmatlari – 17,9 trln.so'm;
- dori vositalari va tibbiy xizmatlar – 2,2 trln.so'm.

Shuningdek:

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i – 2,2 trln.so'm (3 foiz);
- ijtimoiy soliq – 2,6 trln.so'm (3,6 foiz);
- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq – 0,8 trln.so'm (1,1foiz);
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i – 1,3 trln.so'm (1,8foiz);
- aylanmadan olinadigan soliq 0,2 trln.so'm (0,3foiz);
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – 0,1 trln.so'm (0,1foiz).

Xususan, Soliq kodeksiga muvofiq berilgan imtiyozlar ulushi 87,8 foiz dan 87,2 foizga – 0,6 foiz punktga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga asosan berilgan imtiyozlar ulushi 5,7 foizdan 4,7 foizgacha – 1,0 foiz punktga kamaygan, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan imtiyozlar ulushi 0,5 foiz dan 1,2 foizga – 0,7 foiz punktga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga asosan berilgan imtiyozlar ulushi 3,8 foiz dan 5,2 foizgacha – 1,5 foiz punktga oshgan bo'lsa, boshqa hujjatlarga asosan berilgan imtiyozlar ulushi 1,1 foizdan 1,1 foizgacha – 0,0% punktga o'zgarishsiz qolgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 18-avgust kuni mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvda, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarining 70 foizi ushbu soliqni qaytarishda soliq uzilishi koeffitsientini qo'llash, ya'ni "tax gap" tizimi adolatsiz ekanini bildirganinini, soliq tizimidagi korrupsiya bilan bog'liq shikoyatlar haddan tashqari ko'payib ketgani ham aynan "tax gap" bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tgan. Shu sababli, 2023-yil 1-oktyabrdan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarishda soliq uzilishi koeffitsientini qo'llash amaliyoti, ya'ni "tax gap" bekor qilinishini ta'kidlab o'tgan (yuz.uz, n.d.).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292 son qarori bilan qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini soddalashtirish maqsadida qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy summasi o'rnini qoplashda (qaytarishda) soliq uzilishi (tax gap) koeffitsiyentini qo'llash amaliyotini bekor qilindi.

Xulosa va takliflar.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida soliq ma'muriyatchiligida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish bo'yicha quyidagi nazariy xulosalarga kelindi.

Yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma'muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish zarur sababi mamlakatimiz iqtisodiyotda yashirin aylanma darajasini qisqartirish va qonuniy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish imkon beradi.

Soliq organlariga ortiqcha to'langan soliq summasi soliq to'lovchiga uning yozma arizasiga ko'ra, bunday ariza soliq organi tomonidan olingan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, tadbirkorlik subektlarining yuqori barqarorlik reytingiga ega bo'lgan tadbirkorlik subektlariga esa uch kun ichida qaytarilishi lozimligi asoslandi.

O'n sakkiz yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan ijtimoiy soliq to'lagan o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarga onlayn shaklda xizmat ko'rsatish hamda raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish asoslandi.

Soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish maqsadida 2024-yil 1-iyuldan boshlab barcha xo'jalik yurituvchi subektlar uchun tovar-transport yuk xatlarini elektron shaklda rasmiylashtirish, saqlash va ularning hisobini yuritish tizimini majburiy tartibda joriy etish kerak deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Alizadeh, M. & Motallabi, M. (2016) 'Studying the effect of value added tax on the size of current government and construction government', *Procedia Economics and Finance*, 36, pp.336–344.

Farmon (2022). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 'O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida'gi PF-121-son farmon. 27-aprel. Toshkent.

Federal'nyy zakon (2010). Rossiya Federatsiyasi, №229-FZ ot 27-iyulya. Moskva.

Gadoyev, E.F. i dr. (2011) Kosvennye nalogi. Uchebno-prakticheskoye posobiye. Toshkent: Norma, 220 s.

Jingxian, Z., Guangjun, S. & Yaxian, G. (2019) 'The effect of value-added tax on leverage: Evidence from China's value-added tax reform', China Economic Review, 54, pp.135–146.

Kodeks (2017). Respublika Kazaxstan, Nalogovyy kodeks Respubliki Kazaxstan. Statya 412.

Qaror (2021). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 'Soliq to'lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo'shilgan qiymat solig'ining o'rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida'gi 595-son qaror. 22-sentyabr. Toshkent.

Qonun (2022). O'zbekiston Respublikasining O'RQ-812-son Qonuni. 30-dekabr. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/6561>.

Toshmatov, Sh. & Komilov, M. (2004) Qo'shilgan qiymat solig'i. Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 160 b.

Ugarov, R.A. & Lomov, Ye.Ye. (2022) 'Napravleniya razvitiya novogo sifrovogo zakonodatelstva: rossiyskiy i zarubejnyy opyt', Regionalnaya i otraslevaya ekonomika, (1), pp.36–42. https://doi.org/10.47576/2782-4578_2022_1_36

Veronika, V. (2023) 'Yevrokomissiya vnesla predlozheniya po sovershenstvovaniyu sistemy NDS s uchetom epoxi sifrovizatsii'. Available at: <https://internationalwealth.info/offshore-tax/vnesenij-predlozhenij-po-korrektirovke-sistemy-nds-v-es/>.

Yuz.uz (n.d.) 'Tadbirkorlar bilan uchinchi uchrashuvida eng ko'p qaysi so'z ishlatildi'. Available at: <https://yuz.uz/uz/news/-tadbirkorlar-bilan-uchinchi-uchrashuvida-eng-kop-qaysi-soz-ishlatildi>.

Zavalishina, I. (2005) Soliqlar: nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 544 b.